

"O'zkimyoimpeks" MCHJ va "Wondernet Express Investment Group" o`rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi

// 18.07.2022

<https://uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/uzkmyoimpeks-va-wondernet-express-investment-group-urtasida-hamkorlik-memorandumi-imzolandi>



Joriy yilning 18-iyul kuni "O'zkimyoimpeks" MCHJ hamda Gruziyaning "Wondernet Express Investment Group" kompaniyasi o`rtasida hamkorlik memorandumini imzolash marosimi bo`lib o`tdi. Mazkur memorandum orqali sheriklik munosabatlarini o`rnatish, uzoq muddatli, samarali va o`zar manfaatli hamkorlikni rivojlantirish maqsad qilingan. Endilikda "O'zkimyoimpeks" AJ tizim korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mineral o`g'itlar va kimyoviy mahsulotlarni Gruziyaning "Batumi" porti terminali orqali Yevropa mamlakatlari, Braziliya, Hindiston va boshqa ko`plab xorij davlatlariga eksport qilish imkoniyati yanada ortadi.





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati